

## **INGLIZ TILIDA RITORIK SO‘ROQ GAPLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**Dilafruz Xodjayeva**

PhD, Buxoro davlat universiteti,

**Gulchehra Hoshimova Mashraf qizi**

BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik yo‘nalishi

1- bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu tadqiqot ingliz tilida ritorik so‘roq gaplarning semantik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif maqolada savolni ritorik ekanligini ko‘rsatib turuvchi semantik ko‘rsatkichlarga alohida e‘tibor qaratadi. Ya‘ni, ba‘zi savollar bir kontekstda ritorik, boshqasida esa javob talab qiladigan savol bo‘lishi mumkin. Tahlil keng qamrovli ma‘lumotlarga asoslangan.*

**Kalit so‘zlar:** ritorik savol, sof so‘roq gap, so‘zlovchi, tinglovchi, semantik ko‘rsatkich, kontekst.

### **ABSTRACT**

*This paper aims to study semantic features of rhetorical questions in the English language. The author mostly focuses on semantic indicators that a question is rhetorical. Namely, the same questions can be rhetorical in one context and answer-eliciting in another. The analysis is based on extensive data.*

**Key words:** rhetorical question, genuine question, speaker, listener, semantic indicator, context.

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья направлена на изучение семантических особенностей риторических вопросов в английском языке. Автор в основном акцентирует внимание на семантических признаках того, что вопрос является риторическим. А именно, одни и те же вопросы могут быть риторическими в одном контексте и побуждающими к ответу в другом. Анализ основан на обширных данных.*

**Ключевые слова:** риторический вопрос, подлинный вопрос, говорящий, слушатель, смысловой показатель, контекст.

### **KIRISH**

Ritorik savollar ko‘p holatlarda sof so‘roq gaplarga qarama-qarshi tarzda talqin qilinadi: sof so‘roq gaplar so‘roq, buyruq va hattoki darak gaplar kabi sintaktik

shakllar yordamida amalga oshirilib, asosan, noma'lum bo'lgan ma'lumotni olish uchun ishlatiladi. Ammo ritorik so'roq gaplar bunday xususiyatga ega emas va ularni muayyan bir sinflarga turkumlashning imkoni yo'q. Bu muammoning sababi quyidagicha bo'lishi mumkin: ko'pgina holatlarda gap so'roq gap sifatida tasniflanadi (agar gap savol sifatida yo'llangan bo'lsa va tinglovchi tomonidan unga javob mavjud bo'lsa), yoki bayonot sifatida (agar bu gapga javob bo'lmasa). Natijada, qo'shtirnoq ichidagi "ritorika" atamasi bizga bu atamadan tushunarsiz holatda foydalanish ortida yotgan shubhali tushunchani eslatadi. Ushbu qiyinchilikni bartaraf etish uchun biz ritorik so'roq gaplarning muqobil semantik xususiyatlarini aniqlashni maqsad qildik.

Savolning ritorik ekanligini ko'rsatadigan barcha o'ziga xos shakllar ichida eng keng tarqalgani biz semantik nomutanosiblik deb ataydigan tushunchadir. Ya'ni, bunday ritorik savollarda so'zlovchi bir vaqtning o'zida bo'lishi imkonsiz bo'lgan tushunchalarni birlashtiradi va shu bilan uning savoli ritorik sifatida tushunilishini ta'minlaydi: Masalan: I am a coal miner, Comrade Rakowski. Miners are going to work hungry – *how can you expect hungry men to raise production?* (Men ko'mir konchisiman, o'rtoq Rakovski. Konchilar och ishlashyapti - och odamlar ishlab chiqarishni oshirishini qanday kutish mumkin?)<sup>1</sup>

## MUHOKAMA VA NATIJA

Yuqoridagi misolda ko'rib turganimizdek, *och ishchilar* tushunchasi ishlab chiqarishni oshirish tushunchasi bilan uyg'unlashgan. Bu tushunchalar bir-biriga qarama-qarshi bo'lib tuyulganligi sababli, bu avtomatik ravishda tinglovchini savolni ritorik, ya'ni bilvosita bayonot sifatida talqin qilishga olib keladi (Och ishchilar ishlab chiqarishni oshirishi mumkin emas.).

Xuddi shunday, quyidagi misollardagi savollarning ritorik talqini o'zaro mos kelmaydigan tushunchalarni yonma-yon qo'yish orqali ta'minlanadi:

1) *How can I cut a loaf of bread without any knife?* (Qanday qilib nonni pichoqsiz kesib olaman?)

2) *What are you going to do?* (Nima qilmoqchisiz?)

*What can I do? I'm a patsy, what can a patsy do? I worked like a dog twenty years so a punk could have her, so that's what I done.* (Nima qila olardim? Men laqmaman, laqma nima ham qila olardi? Faqat pank unga egalik qila oladi deb, itga o'xshab yigirma yil ishladim, shuning uchun men shunday qildim).

<sup>1</sup> Stoppard T. Squaring the Circle, 1984. – 244 p.

Har qanday mahoratli soʻzlovchi shuni biladiki, nonni kesish uchun sizga pichoq kerak yoki laqma koʻp narsaga qodir boʻlmagan odamdir. Bunday savollar javobi mavjud savol sifatida u ishlatilgan kontekstni talqin qilish imkoni boʻlsa-da, aksariyat hollarda ular ritorik sifatida talqin qilinadi.

Semantik nomutanosiblikni oʻz ichiga olgan ritorik savollar baʼzan shunday shakllanadiki, soʻzlovchi quyidagi misollarda koʻrsatilganidek, keraksiz boʻlgan narsaning foydasi haqida soʻraydi:

1) A: *Listen, what's the use of beating her? That woman was the backbone to this family.* (Eshiting, uni kaltaklashdan nima foyda?) (Oʻsha ayol bu oilaning tayanchi edi);

2) A: *Say, you're not blaming this on me, are you?* (Ayting-chi, siz bunda meni ayblamaysiz, shunday emasmi?)

B: *What's the good of blame?* (Ayblashdan nima foyda?)

3) A: *Floods make the land richer.* (Toshqinlar yerni boy qiladi).

B: *What good does that do if you drown?* (Agar choʻkib ketsangiz, bundan nima foyda?)

Kontekst qanday boʻlishidan qatʼiy nazar, *oilaning tayanchi boʻlgan ayolni urish*, kimnidir ayblash yoki choʻkishning foydasini koʻrish qiyin, shuning uchun bunday savollar deyarli har doim ritorik sifatida tushuniladi.

Bundan tashqari, bunday ritorik savollar, koʻpincha, tinglovchidan yoqimsiz narsani xohlashi yoki xohlamasligini soʻrashni oʻz ichiga oladi:

1) A: *Susie, don't go in my kitchen. You want to be arrested for trespassing, Susie?* (Syuzi, mening oshxonamga kirmang. Siz chegarani buzganingiz uchun hibsga olinmoqchimisiz, Syuzi?);

2) A: *You should already be having therapy to keep up your circulation. You have a long life ahead of you, you don't want to live it in a wheelchair, do you?*

(Qon aylanishini yaxshilash uchun siz allaqachon muolaja olishingiz kerak edi. Oldinda sizni uzoq umr kutmoqda, siz uni nogironlar aravachasida oʻtkazishni xohlamaysiz, shunday emasmi?);

3) A: *Do you think it's pleasant to know that your wife is unfaithful to you two or three times a week, with great regularity?* (Xotiningiz haftada ikki yoki uch marta, muntazam ravishda sizga xiyonat qilishini bilish yoqimli deb oʻylaysizmi?)

Kontekst qanday boʻlishidan qatʼiy nazar, *qamoqqa borish, nogironlar aravachasida umrini oʻtkazish yoki turmush oʻrtogʻini aldaydigan ayolga ega boʻlish* hech kimning orzusi emas, shuning uchun bunday savollarni ritorik sifatida talqin qilamiz.

## **XULOSA VA NATIJA**

Ushbu tadqiqotdan olingan natijalarga asoslanib, biz ko'p hollarda ritorik va sof so'roq gaplar bir xil shaklga ega va ular ritorik yoki javob talab qiluvchi deb talqin qilinishi kontekstga bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ularning ritorik talqinini osonlashtiradigan o'ziga xos shakllarga kelsak, semantik nomutanosiblik bunday savollarning eng keng tarqalgan ko'rsatkichidir.

## **REFERENCES**

1. Khodjayeva, D.I., & Mustafoeva, P.U. (2020). PHONETIC AND GRAMMATICAL ASSIMILATION OF BORROWED WORDS. Theoretical & Applied Science, (11), 547-550.
2. Olimova, D. Z. (2021). Transfer of modality in translation (modal verbs and their equivalents, modal words). Middle European Scientific Bulletin, 12, 220-22.
3. Samigova Kh., Abdullayev, F. - Rhetoric in the English and uzbek languages, 2020.
4. Stoppard, T. Squaring the Circle, 1984.
5. Truong Thi Thuy Duong. A Contrastive analysis of rhetorical question in English and Vietnamese to better presentation skill. Workshop on Innovation in language teaching and learning.